



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

Innatullayeva Lobar Parda qizining
“5220100 filologiya(ingliz tili)” ta`lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun
“Hozirgi zamon ingliz tilida inkor olmoshlarining
sintaktik-semantik va paradigmatic analizi”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : o`q. M. Omonova

“Himoyaga tavsiya etildi”
Roman German filologiyasi fakulteti
dekani _____ dots. D. Jo`rayev
“ _____ ” _____ 2013 yil

Qarshi 2013 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-5
--------------------	------------

I BOB.

1.1. Soʻz turkumlari haqida umumiy maʼlumot.....	6-15
1.2 Olmoshlar haqida umumiy maʼlumot	16-19
1.3. Olmoshlarning maʼnosiga koʻra turlari.....	20-42

I Bob yuzasidan xulosa	43-44
-------------------------------------	--------------

II BOB. Inkor olmoshlarining gap strukturasidagi sintaktik – semantik bogʻlanishlari

2.1. Yadroviy predikativ bogʻlanish	45-46
2.2. Noyadroviy predikativ bogʻlanish.....	47
2.3. Subordinativ bogʻlanish	48-49
2.4. Koordinativ bogʻlanish	50

II Bob yuzasidan xulosa	51
--------------------------------------	-----------

III BOB. Inkor olmoshlarining sintaktik-semantik analizi

3.1 Negativ lokativlik sintaksema	52-55
3.2 .Negativ kvalifikativ sintaksema	56
3.3 Negativ obyektiv sintaksema	57

XULOSA	58-59
---------------------	--------------

Foydalanilgan ilmiy adabiyotlar.....	60-61
Foydalanilgan badiiy adabiyotlar	62
Foydalanilgan lugʻatlar.....	63
Ilova	64

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va yuqori malakali intellektual barkamol avlodni tarbiyalashda davlat siyosatining o'rnini va rolini xalqaro jamoatchilikning o'rganishi va tanishishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan "Bilimli va intellektual barkamol avlodni tayyorlash – mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili" mavzusidagi Xalqaro konferensiyaning ochilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov so'zlagan nutqlarida ta'kidlaganlaridek, "...oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz -- mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz ham, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham --- bularning barcha-barchasi, avvalombor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"¹.

Barkamol avlod tarbiyasi, intellektual salohiyatini yuksaltirish vazifasi so'zsiz, ilmu-fan taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu, albatta, gumanitar fanlarning ajralmas qismi bo'lgan tilshunoslikka ham oiddir. Mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilining tizimi, muloqot qoidalarini ilmiy va amaliy tadqiq qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zotan, zamonaviy tilshunoslik uchun lisoniy hodisalarni sintetik yondashuv asosida, ularning ko'p jihatli xususiyatlarini tizimli ravishda, nutqiy muloqot sharoitida bevosita va bilvosita namoyon bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillarini inobatga olgan holda tadqiq qilish amaliyoti keng o'rin egallamoqda. Til birliklarining bunday keng qamrovli o'rganilishi ularning tub mohiyatini batafsil aniqlash bilan bir qatorda, har bir hodisaning alohida jihatlari, tizimda tutgan o'ziga xos o'rnini belgilash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamon ingliz tili grammatikasi strukturasiga asosan tillar o'z grammatik strukturasiga ko'ra sintetik va analitik bo'ladi. Biroq

¹ Karimov I.A. Bilimli va intellektual barkamol avlodni tayyorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili. –T., "Xalq so'zi", 18.02.2012.

bu grammatik jihatlar hamma tillar uchun xos emas. Har bir tilning o'z grammatik xususiyatlari va funksiyalari mavjud.

Tilshunos olimlarning nuqtai nazarlariga ko'ra, so'z turkumlari va ularning gapdagi vazifalari turlichadir. So'z turkumlari bir biridan ma'no va funksiyalari bilan farq qiladi. Shu sababli mazkur Bitiruv Malakaviy ishimda yordamchi so'z turkumi bo'lgan bog'lovchilarni prof. A.M.Muxin nazariyasiga asosan ilmiy tadqiqot qilishga urinib ko'rdik. Chunki olmoshlarga oid har xil muammolar, asosan ularning gapdagi sintaktik-semantik funksiyalari turlichadir. O'zbek, rus va ingliz lingvist olimlari olmoshlar haqida turli bir-biriga qarama-qarshi fikrlar bildirishgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi inkor olmoshlarini sintaktik komponent sifatida prof. A.M.Muxin nazariyasiga asoslanib, ularni gapdagi ishtirokiga ko'ra sintaktik-semantik va paradigmatic analiz qilish. Chunki ular gap strukturasida sintaktik-semantik jihatdan turlicha komponentlar, aniqrog'i yadroviy (tobe) komponentni shakllantiradilar. Inkor olmoshlarini sintaktik-semantik analiz qilishda ingliz yozuvchilarining asl asarlaridan foydalanildi va ularning gapda turli sintaktik-semantik ma'nolarda kelganligini isbotlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida inkor olmoshlari va ularning sintaktik-semantik tahlili prof. A.M.Muxin sintaktik-semantik analiziga asoslangan holda olingan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiyligi va amaliy ahamiyati. Yuqorida aytib o'tilganidek, inkor olmoshlarining sintaktik-semantik tahlili prof. A.M.Muxin sintaktik-semantik analiziga asoslangan holda, ularning gap strukturasida turli sintaktik bog'lanishlari va sintaktik-semantik tahlili natijasi o'laroq, turli semantik ma'nolar kasb etishi BMIning ilmiyligini tashkil etadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy xulosalari ingliz tilining nazariy va amaliy grammatikasi fanlari uchun ilmiy qiymatga ega bo'lib, inkor olmoshlari mavzusida ilmiy maqolalar yozishda, ingliz tili grammatikasidan shu mavzuda amaliy mashg'ulotlar o'tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida ishning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, obyekti, ilmiyligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

I Bobda hozirgi zamon ingliz tilidagi so'z turkumlari va ularning klassifikatsiyalarining asosiy prinsiplari va olmoshlar haqida umumiy ma'lumot bayon etilgan.

So'z turkumlarining mohiyati, turlariga oid tilshunos olimlarning nazariy fikrlari va qarashlari bayon etilgan. Bundan tashqari olmoshlar haqida va ularning anglatgan ma'nolari va grammatik belgilariga ko'ra turlari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

II Bobda hozirgi zamon ingliz tilida inkor olmoshlarning sintaktik bog'lanishlari badiiy asarlardan olingan misollar orqali ularning yadroviy predikativ, noyadroviy predikativ, subordinativ, koordinativ bog'lanishlari ko'rib chiqilgan.

III Bobda Inkor olmoshlarning sintaktik-semantik tahlili natijasida natijalar, ularning ularning negativ lokativlik belgisi, negativ kvalifikativ belgisi va negativ obyektiv kabi sintaktik-semantik belgilari bayon etilgan bo'lib, mazkur sintaktik-semantik belgilar lingvistik eksperiment metodlari orqali aniqlangan.

Tadqiqot natijasida hosil qilingan fikrlar xulosada umumiyashtirilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi betdan iborat bo'lib, ishning oxirida foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar, lug'atlar ro'yxati, ilova, shuningdek kerakli qisqartmalar berilgan.

I BOB. Soʻz turkumlari klassifikatsiyalarining asosiy prinsiplari

1.1 Soʻz turkumlari haqida umumiy maʼlumot

Soʻz turkumlari muammosi ham umumiy lingvistika nazariyasi, ham alohida tillar analizida katta qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ingliz tilida qaysi soʻz turkumi muhim oʻrinda turishi haqida bir necha umumiy masalalarni koʻrib chiqamiz.²

Soʻz turkumi termini (rus, nemis, fransuz va boshqa tillarda ham shu nom bilan ataladi) juda mustahkam, hammaga maʼlum termin boʻlsada, bizning fikrimizcha bu juda toʻgʻri emas. Masalan, feʼl boshqa soʻzlardan faqat zamon kategoriyasi bor boʻlgani uchun farq qiladi. "live" soʻzining oʻtgan zamon shakli faqat "lived" boʻladi degan javob boʻlishi muqarrar, lekin shu oʻrinda "city" yoki "back" soʻzining oʻtgan zamon shakli nima boʻladi deyish nooʻrin, notoʻgʻri savol boʻladi. Chunki zamon kategoriyasi feʼlni boshqa soʻzlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ingliz tilidagi barcha soʻzlar anglatgan leksik-grammatik maʼnosi, morfologik formasi va ozaro sintaktik aloqaga kirishishi hamda gapdagi vazifasiga koʻra malum guruhlariga boʻlinib, ular grammatikada soʻz turkumlari deb yuritiladi. Ingliz tilidagi soʻz turkumlarini turli olimlar turlicha talqin qiladilar. Masalan, Dioniskiy oʻzidan avvalgi olimlarning fikriga tayanib, soʻzlarni quyidagi sakkizta turkumga ajratadi³:

- | | |
|--------------|---------------|
| 1.Ot, | 5.Olmosh, |
| 2.Feʼl, | 6.Predlog, |
| 3.Sifatdosh, | 7.Ravish, |
| 4.Artikl, | 8.Bogʻlovchi. |

Tilshunoslar Dioniskiy va Diskolning kamchiliklarini ularning izdoshlari, yaʼni stoiklar toʻldirishdi. Grammatik kategoriyalarni takomillashtirish yoʻlida stiklar tomondan quyidagi ishlar qilindi:

- 1.Soʻz turkumlari tushunchasiga aniqlik kiritildi.

² Ilyish V. "The Structure of Modern English",

³ Boʻronov J.B. "Ingliz tili va oʻzbek tillari qiyosiy grammatikasi". T., 1973

2. Tilda ifodolovchi va ifodalanuvchi elementlar borligi ko'rsatildi.

3. Ot kategoriyasiga sredniy rod tushunchasi kiritildi.

So'z turkumlari haqidagi muammo umumiy tilshunoslik nazariyasida va har bir til tahlilida eng ko'p munozarali muammolardan biridir.

So'z turkumlarini tasnif qilish uch turdagi prinsipga asoslanadi:

- 1) ma'no
- 2) shakl
- 3) funksiya⁴

1) Ma'no deganda biz ma'lum bir guruhga kiruvchi hamma so'zlarning umumiy ma'nosini va mohiyatini tushunamiz. Masalan, "Ot" so'z turkumiga to'xtaladigan bo'lsak, "ot" so'z turkumining so'z sifatidagi struktural ma'nosini tashkil etadi. Xuddi shunday fe'l so'z turkumining so'z sifatidagi ma'nosi ish harakatni bildiradi.

2) So'z turkumining shakli deganda biror bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlarning morfologik xarakteristikasi nazarda tutiladi. Shunday qilib "ot" so'z turkumi son kategoriyasi (birlik, ko'plik) bilan xarakterlansa, fe'l so'z turkumi zamon, mayl kabi kategoriyalar bilan xarakterlanadi.

Predlog bog'lovchi kabi bir qator so'zlarning shakli o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi.

3) Funksiya deganda biz so'zning sintaktik xususiyatini tushunamiz, bu esa ikkiga bo'linadi:

- 1) uning boshqa so'zlar bilan birikishi
- 2) uning gapdagi vazifasi.

Birinchisi frazalar (so'z birikmasi), ikkinchisi gap strukturasiga bog'liq. Masalan, 1) write letters yoki write quickly. 2) fe'lning gap strukturasidagi kesim vazifasi.

Masalan, misol tariqasida fe'l so'z turkumiga oid so'zni olib qaraydigan bo'lsak, "fe'l" "ot" so'z turkumi bilan birikadi: "write letters", "discuss questions" va shu bilan birga fe'l so'z turkumi ravish bilan ham birikadi: "write

⁴ B.Ilyish "The structure of Modern English". Leningrad, 1971. 27-bet.

quickly”, “discuss seriously”. Fe’l so’z turkumining gapdagi sintaktik funksiyasi kesimdir.

Ko’pchilik olimlar so’z turkumlarini morfologiyaning bir bo’lagi deb qarashadi, lekin shunga qaramay so’z turkumlarini sintaksisga bog’lab o’rganmaslik xato bo’ladi. Bu muammoga turli olimlar turlicha fikr bildirganlar.

Akademik A.A.Shaxmatovning fikricha, so’z turkumlari sintaksisda o’rganilishi kerak⁵. Tilshunos olim B.Ilyish so’z turkumlari nazariyasini ba’zi sintaktik jihatlarini ham o’z ichiga olgan holda morfologiyaning asosiy qismi deb qaraydi⁶. Tilshunos olim E.M.Gordon so’z turkumlariga quyidagicha to’xtalib o’tadi⁷: “Har bir tildagi mavjud so’zlar ma’lum so’z turkumlariga mansub bo’lib, har bir so’z turkumi o’z xususiyatiga ega . So’z turkumlari bir-biridan ma’nosi, formasi va gapdagi funksiyasiga ko’ra farq qiladi”.

Butun dunyo tillarida so’z turkumlarining o’rni beqiyosdir. Barcha tillarda so’zlar turkumlarga ajratib o’rganiladi. J.Bo’ronov, M.Bo’ronova,⁸ M.Toshboyeva tomonidan yozilgan “Ingliz tili grammatikasi”da so’z turkumlari 14 da deb ko’rsatiladi:

- 1.Ot (Noun)
- 2.Sifat (The Adjective)
- 3.Olmosh (The Pronoun)
- 4.Son (The Numeral)
5. Fe’l (the Verb)
- 6.Ravish (The Adverb)
- 7.Holat kategoriyasi (The category of State)
- 8.Modal so’zlar (The Modal words).
9. Predlog (The Preposition)
10. Yuklama (The Particle)
- 11.Bog’lovchi (The Conjunction)
12. Undov so’zlar (The Interjection)

⁵ A.A.Шахматов “Синтаксис русского языка” М., 1941.

⁶ B.Ilyish “The structure of Modern English”. Leningrad, 1971

⁷ E.M.Gordon, I.P.Krylova “A Grammar of Present – Day English” М., 1974

⁸ Bo’ronov J.B., M.Bo’ronova, M.Toshboyeva. “Ingliz tili Grammatikasi” T.1978, 5-bet.

13. Artikl (The Article)

14. Javob so'zlar (The Response Words)⁹

M.A.Ganshina esa so'z turkumlarini 13 ta deb ko'rsatadi. Ular quyidagilar:

1. Ot

2. Sifat

3. Olmosh

4. Son

5. Fe'l

6. Ravish

7. Predlog

8. Bog'lovchi

9. Artikl

10. Yuklama

11. Modal so'zlar

12. Tasdiq va inkoq gaplar

13. Undov so'zlar

V.L.Kaushanskayaning "A Grammar of English language" asarida so'z turkumlari quyidagilarga ajratiladi:

1. Ot

2. Sifat

3. Olmosh

4. Son

5. Fe'l

6. Ravish

7. Holat kategoriyasi

8. Modal so'zlar

9. Undov so'zlar

Yordamchi so'z turkumlari:

10. Predlog

⁹ Ganshina M.A. va Voselevskaya, "English Grammar", Higher School Publish House, M., 1964.

11. Bog'lovchi

12. Yuklama

13. Artikl

Tilshunos olimlar K.N.Kachalova, E.E.Izrailevich¹⁰lar so'zlarni quyidagi belgilariga ko'ra so'z turkumlariga ajratishadi:

- 1) ma'nosiga ko'ra
- 2) gapdagi vazifasiga ko'ra
- 3) so'z yasash formasiga ko'ra
- 4) so'z o'zgarish formasiga ko'ra

Ingliz tilida so'z yasash formasi va so'z o'zgarishi bir so'z turkumini boshqa so'z turkumidan ajratishda unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Tilshunos olim K.N.Kachalova¹¹ so'z turkumlarini quyidagi so'z turkumlariga ajratadi:

- 1) ot
- 2) sifat
- 3) son
- 4) olmosh
- 5) fe'l
- 6) ravish
- 7) predlog
- 8) bog'lovchi
- 9) undalma

K.N.Kachalova ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravishni ularning gapdagi predmetni, belgin, ish-harakatni va gapda ma'lum bir sintaktik funksiyani bajarganligi uchun mustaqil so'z turkumlariga ajratadi. Predlog, bog'lovchi va artiklni yordamchi so'z turkumlariga ajratadi. Undalmani Kachalova mustaqil so'z turkumiga ham, yordamchi so'z turkumiga ham kiritmaydi, chunki ular gapda hech qanday sintaktik funksiyani bajarmaydi.

¹⁰ K.N.Kachalova, E.E.Izrailevich "Практическая грамматика английского языка" М., 1996.

¹¹ K.N.Kachalova, E.E.Izrailevich "Практическая грамматика английского языка" М., 1996.

Bundan tashqari tilshunos olim E.M.Gordon¹² so'zlarni 3 asosiy guruhga bo'ladi: 1) mustaqil so'zlar 2) yordamchi so'zlar 3) mustaqil elementlar.

Mustaqil so'zlarning aniq leksik ma'nosi bo'lib, ular gapda mustaqil funksiyani bajaradilar. Demak, ular gapda gapning bosh bo'laklari bo'lib kelishi mumkin. Mustaqil so'zlarga fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravish so'z turkumlariga kiruvchi so'zlar kiradi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlardan semantik jihatdan farq qiladi. Yordamchi so'zlar gapda biror bir funksiyani bajarmaydi. Lekin ular gapda so'zning ma'nosini aniqlaydi. Masalan, "the" yoki "a" artikllarini olib qaraydigan bo'lsak

A table	the table
stol	stol
(noma'lum)	(ma'lum)

Ingliz tilida artikl, yuklama, predlog va bog'lovchilar yordamchi so'z turkumlariga kiradi. Mustaqil elementlar turli ma'nolari bilan xarakterlanadi. Mustaqil elementlar gapda hech qanday sintaktik funksiyani bajarmaydi. Masalan, He **certainly** knows all about it. U **albatta** buni biladi.

Mustaqil elementlar ba'zan bitta gapni taskil qilishi ham mumkin. Masalan, Yes. No. Alas.

Mustaqil elementlarga E.M.Gordon¹³ quyidagilarni kiritadi:

1. Modal so'zlar (Modal words)
2. His-hayajon so'zlar (Exclamatory words)
3. Tasdiq va inkor so'zlar.

Har bir konkret tilda mavjud so'zlar ma'lum guruhlariga bo'lingan bo'lib, ular so'z turkumlari deyiladi. Hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillaridagi so'z turkumlari klassifikatsiyasi so'zlarning quyidagi xususiyatlariga kora, ya'ni

a) leksik va leksik-grammatik ma'nolariga ko'ra;

¹² E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974

¹³ E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974

- b) morfologik formalarning ma'lum bir guruhlarga kiruvchi so'zlar uchun umumiyligiga ko'ra;
- c) so'zlarning gapdagi roliga ko'ra aniqlanadi.

So'zlarni guruhlarga bo'lishda ularning ham leksik, ham grammatik formalari hisobga olinganligi uchun so'z turkumlari so'zlarning leksik grammatik razryadlari ham deyiladi. Masalan, ot turkumiga kiruvchi so'zlarning hammasi predmet nomini bildirib keladi. Ammo shuni qayd etish kerakki, hamma oylarning predmet bo'lishi shart emas. Ayrim so'zlar predmetni bildirmasada, baribir predmet o'rnida ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi love-sevgi, joy-quvonch o'zbek tilidagi do'stlik, baxt va hakovzalaridir. Har bir so'z turkumiga mansub so'zlarning oziga xos morfologik formalari bo'lib, u formalar morfologik paradikmalarni tashkil qiladi. Masalan ingliz tilidagi otga qo'shilgan –s qoshimchasi son kategoriyasini, fe'ldagi –ed qo'shimchasida zamon kategoriyasini anglatadi. Bundan tashqari, har bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlar gapda ma'lum bir sintaktik vazifani ham bajarib keladi. Masalan, ot asosan ega, to'ldiruvchi, kesimning predikativ qismi vazifasida, sifat aniqlovchi, kesimning predikativ qismi vazifasida, fe'l asosan gapning kesimi, ravish hol vazifasida keladi. Ikki va undan ortiq so'z turkumi gapda bir xil vazifani bajarib kelishi mumkin. bu hozirgi ingliz tilidagi ot va fe'lda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Hozirgi ingliz tili morfologik ko'rsatkichga boy ema. Shuning uchun ham bir so'z turkumining formasi o'zining boshlang'ich formasi yoki o'z paradigmasining dastlabki formasida kelganida ikkinchi so'z turkumidan farq qilmasligi mumkin. Masalan: water, telephone, mistake so'zlari bir vaqtning o'zida ham ot, ham fe'l vazifasida keladi. So'z turkumlarining bir qismi yuqorida ko'rsatib o'tilgan har uchala xususiyatga ham ega bo'lishi, ayrimlari esa leksik ma'no va morfologik formaga ega bo'lsada, gapda mustaqil gap sifatida ishlatilmasligi mumkin. Shu munosabat bilan so'z turkumlari ikki qismga bo'linadi:

1. Mustaqil so'z turkumlari
2. Yordamchi so'z turkumlari.

Mustaqil soʻz turkumlariga kiruvchi soʻzlar leksik nuqtai nazardan mustaqil maʼnoni ifodalab, boshqa soʻzlar yordamisiz ham predmetlarni atab, miqdorini, belgisini qay darajada bajarilishini soʻzlovchining oʻz nutqi mazmuniga boʻlgan aloqasini koʻrsatadi. Mustaqil soʻz turkumlari grammatik tomondan maʼlum grammatik kategoriyalar bilan bogʻliq boʻlgan paradigmatik formalariga ega boʻlib, gapda maʼlum bir vazifani bajarib kelishi mumkin.

Yordamchi soʻz turkumlariga gapda mustaqil maxsus maʼno anglatmay, mustaqil soʻzlarni bir-biri bilan grammatik aloqaga kiritib, ular oʻrtasidagi semantik, sintaktik munosabatni koʻrsatuvchi gap boʻlagi vazifasida qoʻllanilmaydigan soʻz turkumlariga kiradi. Yordamchi soʻz turkumlariga gap tarkibida urgʻu tushmaydi. Ingliz tilida yordamchi soʻzlarga asosan predloglar va bogʻlovchilar, oʻzbek tilida esa koʻmakchi va bogʻlovchilar kiradi.

Ot, sifat, olmoshlarning bir qismi ayrim ravishlar va feʼllar oʻrganuvchi soʻz turkumlariniqolganlari esa, oʻzgarmaydigan soʻz turkumlarini tashkil qiladi.

Soʻz turkumlari anglatgan leksik grammatik maʼnolari morfologik formasi yoki maʼlum paradigma yasashi, boshqa soʻzlar bilan birika olishi, gapdagi vazifasi, maʼlum suffikslar vositasida yasalishi yoki derivatsion kontrastiga koʻra guruhlarga ajratiladi.

1. Leksik grammatik maʼno deganda maʼlum soʻz turkumiga kiritilgan har bir soʻzning ham alohida ifodalagan konkret nominativ maʼnosi, ham umumlashgan grammatik maʼnosi tushuniladi. *book*, *popular*, *government*, *peace* kabi soʻzlarning har biri alohida lugʻaviy maʼnoni anglatadi. Shu bilan birga ularning hammasi uchun umumiy boʻlgan predmetlik maʼnosi mavjud. Koʻrsatilgan har ikkala maʼno soʻz turkumlarining asosiy meʼzonlaridan biri hisoblanadi.

2. Morfologik forma. Soʻzlarning kategorial paradigmatik formalari boʻlib, grammatik maʼnoni ifodalash uchun ishlatiladi. Hozirgi ingliz tilida morfologik yoki kengroq qilib aytganda grammatik forma yo sintetik, yo analitik tarzda ifodalanishi mumkin:

a) sintetik forma soʻz shaklini yasovchi grammatik formalarini qoʻshish yoki ichkifleksiya vositasida yasaladi. Masalan:

He works, U ishlaydi. He worked. U ishladi.

He knows many languages. U ko'p tillarni biladi.

Yuqoridagi gaplarda grammatik forma sifiksatsiya yordamida yasalgan, chunki grammatik formalar hisoblanuvchi –s(shaxs, son va zamon qo'shimchalari), -ed (o'tgan zamon formasini yasovchi qoshimcha), -(e)s (ko'plik son qo'shimchasi) so'z negiziga to'g'ridan to'g'ri agglyutinatsiya usulida qo'shilyapti. Ichki fleksiya so'zlarning o'zagidagi unlilarni o'zgartirish vositasida so'z formalari yoki grammatik kategoriyalar yasashdir. Masalan, I wrote a letter to my friend. (Men do'stinga xat yozdim). My sister has very beautiful teeth. (Singlimning tishlari juda chiroyli) gaplarida wrote (yozdim) fe'lining ichki fleksiya (ablaut) vositasida yasalgan. Hozirgi ingliz tilida ichki fleksiya juda keng qo'llanmasada, hamon o'z ifodasini yo'qotgani yo'q. Sintetik formalar qatorini ma'lum o'rinni turli so'z turkumlari uchun xos bo'lgan suppletiv formalar deb yuritiluvchi maxsus Grammatik formalar egallaydi. Suppletivizm ma'lum Grammatik kategoriyani turli o'zaklardan yasalgan formalar vositasida ifoda etilishidir. Masalan,

I – we (men - biz)

He, she, it – they (u - ular)

Good – better – best

(yaxshi-yaxshiroq – eng yaxshi)

“To go “ fe'lining shakllari:

To go – went – gone

(ketmoq - ketdi)

b) Analitik forma ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro qo'shilishi vositasida yasalib, ulardan biri o'z leksik ma'nosini to'la saqlab qoladi. Qolganlari esa, faqat Grammatik ma'nolarni anglatish uchungina ishlatiladi.

Har bir analitik formada ham leksik, ham Grammatik formalar mavjud bolib, leksik element grammatik ma'no bilan qisman bog'liq bo'ladi. Masalan, perfekt kategoriyasini ifodalovchi analitik formada to have ko'makchi fe'li grammatik kategoriyani ifodalasa, asosiy fe'l leksik ma'noni va qisman grammatik ma'noni

ifodalaydi. 3.Boshqa so'zlar bilan birikish deganda har bir so'z turkumining bir va ikki tomonlama ya'ni yo ong, yo chap tomondagi so'zlar bilan birika olish imkoniyati tushuniladi. 4.So'zlarning gapdagi roli so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatini aniqlashdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayrim so'z turkumlari gapda gap bo'lagi vazofasida kelsa, ayrimlari bu vazifani bajara olmaydi.Shunga binoan, so'z turkumlari mustaqil so'z turkumlari (National parts of speech) va yordamchi so'z turkumlari (Structural parts of spech) bo'linadi.Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, holat kategoriyasi va boshqalar mustaqil so'z turkumlari, predlog, bog'lovchi, artikl, ko'makchi va boshqalar yordamchi so'z turkumlari hisoblanadi.

5.Derevatsion konkret so'z turkumlarining ma'lum so'z yasovchi affikslar bilan birga ishlatilishiga bog'liq. Ma'lumki, yangi so'z yasalganda faqat yangi leksik birlik yasabgina qolmay, bir vaqtning o'zida yangi so'z turkumi ham yasaladi. Predlog (the Preposion) U.H.Hoshimovning "Ingliz tili grammatikasining normativ kursi " asarida mustaqil ma'no anglatmay, "ot" va olmosh va boshqa so'z turkumlarining ma'nolarini to'ldirib, ularning bir-birlariga, shuningdek ma'lum hodisaga ega bo'lgan munosabatini bildiruvchi yordamchi so'z turkumlari predloglar deyiladi¹⁴.

¹⁴ Hoshimov U.H., "Ingliz tili rammatikasi" T., 1968

1.2 Olmoshlar haqida umumiy ma'lumot.

Hozirgi zamon ingliz tili grammatikasida ot, sifat, son, ravish kabi soʻz turkumlari oʻrnida qoʻllanilib ularni koʻrsatishga xizmat qiluvchi va ularning (baʼzi) vazifasini bajaruvchi soʻz turkumi olmosh deyiladi. Olmoshlar narsani uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki faqat ularni koʻrsatish, ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Olmoshning maʼnosi uning qaysi soʻz turkumi oʻrnida kelganligi kontekstda yoki nutq vaziyati orqali aniqlanadi. Chunki olmoshlarning koʻpchiligi alohida olganda juda umumiy, mavhum maʼnoga ega boʻladi.

Olmoshlarning mavhum maʼno anglatishi ularning qoʻllanish meyorida ham koʻrinadi. Jumladan, narsani bildiruvchi olmosh koʻpincha otlardan keyin qoʻllanib, shu otning ekvivalenti, morfologik sinonimi, uning oʻrinbosari boʻlib keladi¹⁵.

Olmoshlar maʼnosi va xususiyati jihatidan qaysi soʻz turkumi oʻrnida kelishiga qarab umumlashgan predmet (olmosh-ot), umumlashgan belgi (olmosh-sifat), umumlashgan miqdor (olmosh-son) bildiruvchi olmoshlarga ajratiladi.

Narsani bildiruvchi olmoshlar predmetni koʻrsatadi, shu sababli, ot kabi kelishik bilan turlanadi, gapda ot bajargan vazifada keladi: I, you, he, she, it, we, they, somebody, someone, who, what, anyone, nobody, nothing. Something kabilar.

Umumlashgan belgi bildiruvchi olmoshlar esa sifat va ravishlar oʻrnida ishlatiladi, forma jihatidan oʻzgarmaydi, gapda asosan aniqlovchi va ham vazifasini bajaradi. This, that, these, every, someall, how, which, when, never, any, somehow, such, each kabilar shunday olmoshlarga kiradi.

Olmoshlar boshqa soʻz turkumi oʻrnida kelishi, shu soʻzlarning grammatik xususiyatlariga ega boʻlishi bilan birga ularning oʻziga xos alohida grammatik belgilari bor. Bu beligilar esa olmoshlarni alohida soʻz turkumiga ajratish imkonini beradi. Jumladan, umumlashgan narsa bildiruvchi olmoshlar maʼlum grammatik belgilari bilan otlardan farq qiladi.

¹⁵ L.S.Бархударов "Грамматика анамиз Yazik" M.1993

Bu olmoshlar grammatik son kategoriyasini boshqacharoq ifodalaydi- birlik va ko'plik shakllari bo'lgan **I** va **we** olmoshlari o'rtasidagi bog'lanish otlardagi birlik va ko'plik shakllariga o'xshamaydi. **I** olmoshi yakka so'zlovchi shaxsni ko'rsatadi, **we** olmoshi esa bir qancha so'zlovchi emas, balki bir so'zlovchining boshqa narsalar bilan birgalikdagini ko'rsatadi. Olmoshlar faqat morfologik jihatdagina emas, sintaktik xususiyatlari bilan ham otlardan farq qiladi.

Umumlashgan belgi va umumlashgan miqdor bildiruvchi olmoshlar shakllar sifat va sondan farq qilmaydi, ammo olmoshga xos mavhum umumiy ma'no anglatish xususiyati ularni bir so'z turkumlaridan farqlovchi asosiy belgi sanaladi¹⁶

Olmoshlarning morfologik klassifikatsiyasi. Demak, yuqorida tilshunos olimlarning fikrlariga ko'ra, tilda mavhum ma'no va mustaqil funksiyaga ega bo'lgan predmetlarni va ularning belgisini hamda predmetlar o'rtasidagi sintaktik aloqalarni qisman ko'rsatib kelgan so'z turkumiga olmosh deyiladi.

Olmoshlar garchi har xil so'z turkumlari o'rnida ishlatilsa ham ular predmet va ularning ma'nosini to'g'ridan-to'g'ri ifodalmaydi.¹⁷ Olmoshlar ma'no va ishlatilishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi.

I Substantiv olmoshlar (Substantive or Noun Pronouns)

II Ad`ektiv olmoshlar (Adjective Pronouns)

Ot o'rnida kelib ega, to'ldiruvchi va predikativ vazifasida qo'llanadigan olmoshlar substantiv olmoshlar deyiladi. Masalan:

When they had taken their places the said abruptly; I have a crow to pluck with you (J.Joyce)

It smells like giraffe and it kicks like giraffe, it has not any form.
(R.Kipling)

She got up and danced round her (R.KSS)

He will kill mice, and he will be kind to babies when he is in the house, pist as long as they do not pull his tail too hard (RKM)

¹⁶ B.S. Kaushanskaya "A grammar of The English language" L.1977

¹⁷ J.Buranov "English Grammar" T.1974.

Substantiv olmoshlari son va kelishik kategoriyalariga ega. Masalan: **I, he, she, it** ko`plikda **we, you, they**.

I(nominative case) –**me** (objective case)

He (nominative case) –**him** (objective case)

The girl glanced back at him over her shoulder and said with great bitterness (JJU)

Predmetninng belgisini, sifatini aniqlovchi vazifasida keluvchi olmoshlar ad`ektiv olmoshlar deyiladi.

She nodded her head gravely (J.Joyce)

O, my Enemy and Mother of my Enemy, “ said the Cat (R, Kiply)

That's your very own hump that you have brought upon your very own self by not working (I bid)

On his heart he was satisfied (D.H. Lawrence)

Ayrim olmoshlar ham subetantiv ham ad`ektiv olmosh vazifasida kelishi mumkin.

All (substantive) was dark in the house (Galsworthy)

But (we don't want all (adjective) those (adj) teeth: only put two (RKM)

Had she really any life of her own behind all (adj) her propoganism (J.J U)

She wondered about the other (adj) girl (PAP)

The others (subs) just care about being a good dresser (PAP)

Keyingi ikki gapning birnchisidagi **other** so`zi **girl** so`zini aniqlab ad`ektiv olmosh vazifasida kelayotgan bo`lsa u ikkinchi gapda ko`plik ( -s ni olganligi hamda ainq artikl **the** bilan ishlatilib, gapda ega bo`lganligi uchun ham substantiv olmosh vazifasida kelyapti.

Olmoshlar shaxsni bildiradigan va shaxsni bildirmaydigan olmoshlarga bo`linadi.

Kishilik, egalik, o`zlik, qisman so`roq va noaniq olmoshlar shaxs bildiradigan olmoshlarga quyidagilarni kiritish mumkin: **I(me), my, mine, he**

(him), his, she (her) hers, you, your, we (us) our, ours, they (them) their, theirs, myself, himself, yourself, yourselves, ourselves, themselves, who (Whom, whose, whoever) each, other, somebody, anybody, everybody, noone va qisman **some, any, all.**

Shaxs bildirmaydigan olmoshlar: it, it's this, (these), that (those) such, which, what, whatever, nothing, everything, something.

It kishilik olmoshi faqat yosh bolaga nisbatan ishlatilgandagina shaxs bildirishi mumkin:

Where is child?

It is here

Ba`zan, badiiy adabiyotlarda yozuvchi tomonidan hayvonlar shaxslantiriladi. Ana shunday hollarda ularning nomlari o`rnida kishlik olmoshlarini qo`llash mumkin bo`ladi: He has not made a bargain with me or with all proper Dogs after me (RKM78)

Shaxs bildiradigan olmoshlarni bunday shaxslantirilgan olmoshlardan farq qila bilish zarur. Olmosh har xil grammatik kategoriyalar bilan ishlatilganda o`z farqlarini o`zgartiradilar.

I-me, he-him, somebody-somebody's

These-this, that-those, who-whom, twwhose whoever va boshqalar.

Hech qanday grammatik kategoriyalarda turlanmaydigan olmoshlar: such, which (the) some, no, neither kabilar.

1.3 Olmoshlarning grammatik ma'nolariga ko'ra turlari.

Olmoshlar anglatgan ma'nolari va grammatik belgilariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi.

- 1) kishilik olmoshlari (Personal pronouns)
- 2) o'zlik olmoshlari (Reflexive pronouns)
- 3) egalik olmoshlari (Possessive pronouns)
- 4) ko'rsatish olmoshlari (Demonstrative pronouns)
- 5) inkor olmoshlari (negative pronouns)
- 6) So'roq olmoshlari (Interrogative pronouns)
- 7) Gumon olmoshlari (Indefinite pronouns)

1. Kishilik olmoshlari (Personal pronouns) shaxslarni bildirib, ot o'rnida qo'llanuvchi so'zlarga aytiladi.

He is a man who wants to be just like every one else but he is curred by an obsession that marks him as different (PAP46)

She was a long nosed woman of twenty nine (ACS57)

Kishilik olmoshlarining xarakterli belgilaridan biri ular asosan so'zlovchi (speaker), tinglovchi (listener) va nutqda ishtirok etmaydigan uchinchi shaxsni kishilik olmoshlarining predmet ma'nosini ifodalovchi otlardan bo'lgan farqni ko'rsatadi. Bundan tashqari I-men so'zi ham jinsga kiruvchi odamlarga ishlatilishi mumkin.

Kishilik olmoshlari ega vazifasida kelganda who? so'rog'iga, to'ldiruvchi vazifasida kelganda whom? so'rog'iga, jonsiz predmetlar o'rnida what? so'rog'iga javob bo'ladi.

Kishilik olmoshlarining asosiy formalari.

I-men

You –sen

He-u o'g'il bola

She – u qiz bola

It –jonsiz predmet, u

We-biz

Bosh kelishikda

(Nominative case)

They –ular

Me-meni, menga, menda, mendan

You-seni, senga, senda, sendan

Him

Her uni, unga, unda, undan

It

Us-bizni, bizga, bizda, bizdan

Them- ularni, ularga, ulardan

Kishilik olmoshlari I-II-III shaxsda qo`llanadi.

Take him with you when you go hunting (R KM80)

You are welcome, my dear (RKM68)

Esa! Esa! Shame upon you

You are Ugudwash the sunfish... (JJY79)

Shunday qilib hozirgi zamon ingliz tilida uchinchi shaxs uchun birlik va ko`plik sonlarning formal oppozitsiyasi yo`q.

You olmoshining birlik yoki ko`plikdagi shakli kontekstdan yoki nutq vaziyatidan aniqlanadi. III-shaxs birlikda uchta forma bo`lib, ular he – erkaklar uchun she-ayollar uchun it- jonsiz predmetlar va yosh bolalar uchun ishlatilishi mumkin.

It olmoshining boshqa vazifalari quyidagicha bayon etiladi:

He, she olmoshlari ertak va maxsus tekstlarda hayvon va parrandalarni shaxslantirishi mumkin. Bunda ular shaxsiga qarab tanlanadi. Masalan:

Kaa was not a poison snake and if he hugged somebody that was the and (RKM135)

Mother Wolf threw herself down among the cubs and she said to father wolf “Keep him”.

It kishilik olmoshi hozirgi ingliz tilida juda ko`p qo`llanadi. U anaforik (davom ettiruvchi) va boshlab boruvchi tarzida qo`llanadi. Avval ishlatilgan so`z va

konstruksiyalar o`rnida it kishilik olmoshining qo`llanilishi anaforik ishlatish deyiladi.

Masalan:

He remained with her for an hour. And dr.Makphail watched the rain it was begaining to get on hit news (SMSS190)

They finished the meal in silence when it was over the too ladys got up and look their work.(PAP48)

Bu misollarda it olmoshi rain –yomg`ir va meal-ovqat so`zlarini takrorlamaslik uchun ishlatilgan. It kesimdan keyin keladigan so`z konstruksiyasi o`rnida qo`llansa boshlab boruvchi ishlatilinishi kerak.

Masalan:

It was singular that Horm should ask him that question for he also had the idea that the missioner was at work (SMSS108)

It is terrible the way the man their responsibility (PAP109)

It olmoshi shaxssiz gaplarda juda ko`p qo`llanadi:

It is almost a hopeless task for the missiones here.

He, she, it ning ko`plik formasi they. They ingliz tilida skandinav tillaridan o`tgan bo`lsada hozirgi ingliz tilida sof ingliz tilida ishlatiladi va u he, she, it kishilik olmoshlarini shaklidir supplative yo`li bilan yasalgan ko`plik formasi hisoblanadi.

Masalan:

I Jazz her, then they come after me and I cut out to Ann(ACS45)

I cut out so they never find me(SMSS87)

Hozirgi zamon ingliz tilida kishilik olmoshlarining asosiy vazifalaridan biri kesimning shaxsini bildirishdir. Chunki hozirgi ingliz tilida Modern English fe`llaridan shaxs qo`shimchalari yo`q bo`lib, ularning vazifalarini kishilik olmoshlarii bajaradi. Hozirgi kunda olmoshlarsiz fe`lning qaysi shaxsda ekanligini aniqlash qiyin. O`zbek tilidagi shaxs qo`shimchalari ingliz tilida kishilik olmoshlari vositasida tarjima qilinadi.

Masalan: boraman –I go

Borasiz-You go

Boradi –he , she, it goes

Boramiz- we go

Boradilar –you go

THE CATEGORY OF CASE (Kelishik kategoriyasi). Kishilik olmoshlari uchun ikkita kelishik nominativ (Nominative) va ob`ektiv (Objective) kelishik formalari harakterlanadi. Masalan:

Take him (obektiv) with you ob`ektiv when you (nominative) go hunting (PAP76)

Lany lit a cigarette and settled near her mebel looked at him (PAP106)

We will not let Tant Anue out do us (I Bid)

Yuqoridagi misollarda I he, she, we, they olmoshlari o`z formalariga qarama-qarshi ya`ni I – me he- him she –her we –us they –them tarzida qo`yiladi.

You –siz hamda jonsiz predmetlar hayvon va parrandalar nomlari ishlatiluvchi it-u olmoshi o`zlarining sintaktik funksiyalariga ko`ra nominative va objective formalari ma`nolarini o`zgartirmaydilar shuning uchun ham you va it olmoshlarini shakllan kelishik formalariga neytral olmoshlar deb yuritiladi.

Masalan: you (Nominative) pull and I will push with my hells (SMSS87)

“Did he actually show you? Asked stern (PAP58)

Can you (nominative) remember whether he actually showed you (objective) down? He asked her. (hw LongFellow)

It (nominative) was rarely he saw his master's face he did not look at it (ob`ektiv).

I may just catch the pord smouth train at guid ford and go to Haslemere in it (Obyektiv) (SMSS80)

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan thee (sen) arxaik olmoshining obyektiv kelishikdagi formasi **the** bo`lib hozirgi ingliz tilidagi o`z mahsuldorligini yo`qotgan. Ayrim she`riy asarlarda you kishilik olmoshining arxaik formasi ye ham uchrab turadi. Masalan:

And he shouted from below them cried exulting from the cavens: “O ye sea – gulls! O my brothers!

I have slain the the sturgeon Nahma? (HWL59)

Ba`zan ob`ektiv kelishik formasidagi kishilik olmoshlari predikativ funrsiyasida kelganda ob`ektiv kelishikda qo`llanilishi mumkin. Ingliz tilida bunday olmoshlarni disjunctive (ajratib ko`rsatilgan) yoki separative pronouns (ajratilgan olmoshlar) deb yuritiladi.

It is I- it is me;

It is she-it is her;

It is we – it is us

It is they –it is them

POSSESSIVE PRONOUNS (EGALIK OLMOSHLARI). Egalik olmoshlari ma`lum bir shaxsning biror egaligini biror shaxsga ega ekanligini ko`rsatib keluvchi olmoshlarga aytiladi.

Conjoint Form

Singular: my –mening

Thy- sening (arxaik)

His –uning (o`g`il bola)

Her –uning (qiz bola)

Its –uning (jonsiz predmet)

Plural: our – bizning bizlarning

Your –sizning, sizlarning

Their- ularning,

Absolute Form

Singular mine-meniki, o`zimmniki

Thine-seniki, o`ziniki

His –uniki, o`ziniki

Hers-uniki, o`ziniki

Its –uniki, o`ziniki

Plural ours- bizniki, o`zimizniki

Yours –seniki, o`zingizniki

Theirs- ularniki, o`zlariniki

Hozirgi ingliz tilida egalik olmoshlarining bog`liq (suppoint form) va mustaqil formalari (absolute form) mavjud.

Egalik olmoshlarining bog`liq formasi egalik olmoshlarining bog`liq formasi o`zi aniqlab kelgan so`zlar bilan birga ishlatilib gapda aniqlivchi bo`lib keladi. Bu formadagi egalik olmoshlari o`zbek tilidagi kishilik olmoshlari qaratqich kelishigi formasida tarjima qilinadi.

Masalan: my – mening, thine – sening, his – uning, our – biznng, your – sizning, their – ularning

Ingliz tili egalik olmoshlari o`zbek tilida faqat egalik qo`shimchalari yordamida tarjima qilinadi. Masalan:

my book – kitobim

Your book – kitobing

He is not nice like our friend she squirrel

Why had you a pecil in your ear ?

They each hed their own room and all (G.D Solinger)

Noaniqlikni ko`rsatish uchun his, her, its egalik olmoshlari o`rmini olmoshning one`s formasini ishlatish mumkin. Masalan:

One must know, one`s duty – har kim o`z burchini bilishi kerak.

To change one`s voice – o`z ovozi o`zgartirmoq.

Egalik olmoshlarining mustaqil formasi ingliz egalik olmoshlarining mustaqil formasi o`zbek egalik olmoshlariga to`g`ri keladi. Masalan:

mine – meniki ,thine – seniki his – uniki, hers – uniki, ist – uniki, ours- bizniki, yours – siz(lar) niki, thers – ularniki. Egalik olmoshlarining mustaqil formasi tarixan egalik olmoshlarining bog`liq formasi bilan bir xil bo`lsada keyinchalik struktura va ishlatilishi jihatdan undan ajralib chiqqan.

Egalik olmoshlarining mustaqil formasi asosan egalik olmoshining bog`liq formasiga –s ko`plik qo`shimchasini qo`shish orqali yasaladi. Masalan: our+s, your+s, their+s

If this game of ours is going to be what,

I think it will “the easier we make our sound pictures the better for everybody.

My wife should be looking after her own indulgences-she has an excellent resul adviser

I employ you look after mine

The money was not his and he shot himself (HIW81).

When Strain was a child a cousin of his had once fallen in love with a dying girl(PAP67)

Yours are probably as good as his. And Strain imagined the eyes of a good one suddenly meeting his with instant understanding (HIW65)

Tarixiy asarlarda egalik olmoshlarining har xil qo`llansa ularning formasi: (O, my prophetic soul!) Mine uncle! (Shakespare) hozirgi ingliz tilida mustaqil forma aniqllovchi vazifasida kelmaydi.

REFLEXIVE PRONOUNS (O`ZLIK OLMOSHLARI). Ish – harakatning bajaruvchi ham sube`kti ham ob`ekti ham egaligini va gapning egasi biror harakatni o`zi bajarganligini bildiruvchi olmoshlar o`zlik olmoshlari deyiladi.

Strukturasiga ko`ra o`zlik olmoshlari qo`shma so`zlarga kiradi. O`zlik olmoshlarining ob`ektiv keloshikdagi kishilik egalik olmoshiga self(selves) qo`shimchasi qo`shish bilan yasaladi: myself, yourself, ourselves, yourselves, himself, herself, itself.

Singular: myself-o`zim, o`zimni o`zinga, o`zimdan

Yourself-o`zing, o`zingni, o`zingga, o`zingdan

Himself

Herself o`zi, o`zini, o`ziga, o`zidan

itself

Plural: ourselves – o`zimiz, o`zimizni, o`zimizdan

Yourselves – o`zingiz, o`zingizni, o`zingizdan

Themselves – o`zlari, o`zlarini, o`zlaridan

O`zlik olmoshlarining grammatik kategoriyasi mavjud. O`zlik olmoshlarida shaxs, son va rod grammatik kategoriyalari bo`lib, ulardan tashqari jonsiz predmetlar uchun itself formasi ishlatiladi.

1. The category of person and number – shaxs va son kategoriyalari.

O`zlik olmoshlarining uchta shaxs ya`ni birinchi shaxs ikkinchi uchinchi shaxslari bo`lib har bir shaxs o`z navbatida birlik va ko`plikdagi tuzilishidan iborat.

Birlik, ko`plik formalari bir-biridab fonetik jihatdan farq qiladi. Masalan: birlikda self- ko`plikda selves qo`llanadi.

On my return I come round a corner and find myself before a big barrack (JJU124)

Then look at ourselves never free from feeling the toothaches of others (JJU56)

I am afraid you didn't enjoy yourself at all said Mary Jane hopelessly.

Gabriel asked himself was the cause of her abrupt departure (PAP90)

Why didn't you think of it before she said shifting herself in annoyance (JJU43)

Worthy millions this of it displaying itself for nothing to the just and the unjust the rich and the poor (SMSS74)

On the station platform Ann next to the tall starched elderly man both of whom looked like entire organizations in themselves (PAP91)

O`zlik olmoshlari predloglar bilan ham ko`p qo`llanadi:

Why should I be ashamed of myself asked Gabriel blinking his eyes and to smile (JJU32)

O, innocent Amy! I have found out that you write for the Daily Express "Now aren't you ashamed of yourself?" (JJU70)

O`zlik olmosh kishilik va egalik olmoshlari singari III-shaxs birlikda mujskoy va jenskiy rodga kelishi kerak. Masalan: himself erkaklar uchun herself ayollar uchun itself jins ko`rsatilmagan hamma hollarda ishlatiladi. Masalan: Strain saw himself writing and proclaiming a show about fair play (JJU70)

He felt queit at ease now for he was an expect carvair and liked nothing
himself at the hip of well-ladan table (JJU109)

This time good humouredly and then added quickly (JJU76)

She had worked herself into a possession and vould have continued indiffents
of had sister (JJU43)

Jonsiz predmetlar uchun itself ishlatiladi. Masalan: The high color of his cheeks pushed upwords even to his forehead where it scattered itself in a few formless plarred (JJU87)

Kishilik olmoshlari kabi o`zlik olmoshlarida ham noma`lumlik yoki umumiylik oneself so`zi yordamida ko`rsatiladi:

To attain full growth one mustn't be squamish to storve oneself emotionly a
mistake (Galsworthy)

Ingliz o'zlik olmoshlari o'zbek o'zlik olmoshlaridan quyidagilari bilan farq qiladi: 1. ingliz o'zlik olmoshlari o'zbek tilidagi o'zlik olmoshlari singari turlanmaydi. Shu sababli o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganda predloglardan foydalaniladi:

O`zim - myself

O`zimning – of myself

O`zinga – to (for) myself

2. ingliz o'zlik olmoshlari ega vazifasida mustaqil ishlatilmaydi.

Elefatik (kuchaytiruvchi) olmoshlar emphasizing pronouns.

Gapning egasi biror bir ishni mustaqil bajargaligini bildiruvchi olmoshlar emefatik olmoshlardir. Ular formasiga ko`ra o`zlik olmoshlaridan farq qilmaydi. Bu olmoshlar asosan izohlovchi vazifasini o`tab yo egadan keyin yo gapning oxrida keladi. Kishilik olmoshlari balki ot bilan ifodalangan ega va ularni kuchaytirish uchun ishlatilgan infatik olmoshlar o`zbek tiliga uni o`zi u yakka o`zi, kabi so`zlar yordamida tarjima qilinadi:

I myself – men o`zim, it itself – u o`zi

We ourselves – biz o`zimiz, you yourself – sen o`zing

You yourselves – sen o`zing, they themselves – ular o`zlari.

A shurt smiled me the flowers!

A flower herself... (galsworthy)

O`zlik olmoshlari to`ldiruvchi vazifasida kelsa emfatik olmoshlar qo`shimcha manoga ega bo`ladi.

To take a pich itself, said Mary Jjane after all your liking (JJU106)

Ba`zan infatik olmoshlar kesimdan keyin kelishiga qaramay manosidan uning emfatik olmoshiga ishlatiladi:

She laughed herself this time good humrouredly...

He walked by himself and all places. (J.Joyce)

And while the herself finished mixing the mustard she gave Millie a few verbal stabs for her excessive slowness (PAP74)

Demonstrative Pronouns (Ko`rsatish olmoshlari). Ko`rsatish olmoshlari formasini o`zgartirishi yoki o`zgartirmasligiga ko`ra ikkiga bo`linadi:

1. o`zgaruvchan ko`rsatish olmoshlari: this – these, that – those

2. o`zgarmas ko`rsatish olmoshlari: such , same

O, no, sir, she answered. I have done schooling this year and more (JJU43)

That is what I want to know (HIW48)

Those closed suddenly (HIW38)

In two particulars. These were the clows and the pigment stuff... (HIW102)

The sooner you get those things in the better

I will be pleased (HIW27)

Up the staircase were pilot a multitude of those bright coloured pot things ...? (HIW28)

This va that olmoshlari sustansiv funksiyasida kelganda ot o`rnida ishlatilib boshqa so`zlar tomonidan aniqlanadi va gapda ega yoki to`ldiruvchi bo`lib keladi:

This is a book: I will take this: Have you seen that? These are books: have you seen them? (HIW54)

Ad`ektiv funksiyada kelganda esa bu olmoshlar boshqa so`zlarni aniqlaydi va gapda aniqlovchi bo`lib keladi:

This book is mine. That book is yours.

These books are interesting

This, that olmoshlari bilan yasalgan birikmalar: all this, all these, all that (those) this one, that one, by that, like that is that, that is to say, that will do, that will not do, this and that, now that, this day, this week.

Ko`rsatish olmoshlari faqat konkret otlar bilan emas balki mavhum otlar bilan ham ishlatilishi mumkin:

This invisibility indeed! (HW8)

Some olmoshi ham ko`rsatish olmoshi bo`lib shunday, huddi shunday, o`shaning o`zi degan ma`nolarni anglatadi.

The same thing that happened with you.

We always had the same meal on Saturday night at Rency (I. Salinger)

If its refractive index could be made the same as that of air (H. Wells)

